

ABDULLA QAHHORNING “BEMOR” HIKOYADAGI FRAZEOLOGIZMLARNING QO’LLANILISHI

Shamiddinova Qurbonoy Jamoliddinova

*O‘zMU o‘zbek fiologiya fakulteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Dunyodagi hamma frazeologizmlarning umumiy xususiyatlari yagona, lekin adiblar tilidan ayrim frazeologik birliklar milliy o‘zgachalikni berish uchun foydalangan lingvokulturologik belgi hamohangligi frazeologizmlarning xususiy qirralarini ham ko‘rsatib beradi. Ushbu maqola Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida uchraydigan frazeologik birliklarni konseptologik tahlilga bag‘ishlangan.

Xalqlar paydo bo‘lgandan buyon necha ming yil o‘tdi.. Tarixiy o‘rganishlar natijasida har bir xalqning kelib chiqishi, ijtimoiy hayoti, madaniyati o‘rganiladi. Bu esa sotsiollingvistika, lingvokulturologiya kabi bir necha sohalarning vujudga kelishiga sabab bo‘di. Biz yozma manbalar orqali nafaqat xalqlarning tili, balki o‘sha xalqning madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, xulq-atvorini ham yanada chuqurroq o‘rganib bordik. Biz qaysidir millat tilini o‘rganish orqali o‘sha millatning xulq-atvori, hayotida erishgan yutuqlaridan xabardor bo‘lamiz. Qadimdan ko‘pchilik tilshunoslar(V.Fon.Gumbodt, E.Sepir, B.Uorf)ning farazlaricha til bu madaniyatini o‘zida aks ettiradi.

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va bu muommoning yechimini topishga qaratilgan dastlabki urinishlar V.Gumboldt asarlarida kuzatiladi.[til falsafasi asaridan 8.109]

U yaratgan ta‘limotining asosiy xulosalari quyidagilar:

1. Moddiy va ma‘naviy madaniyat tilda o‘z aksini topadi;
2. Har qanday madaniyat uning milliy tilida namoyon bo‘ladi;

Madaniyatni har bir xalq, millat, jamiyat, soha, shaxsning o‘zi yaratadi. Sepir ta‘kidlaganidek: “Til bu madaniyatni ilmiy o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘l ko‘rsatkichidir”.

Til vositalari, ya‘ni frazeologizmlar orqali bir millatning ezgu o‘ylarini, ijtimoiy hayotini, olamning manzarasini yoritish mumkin. Shu o‘rinda, avvalo, frazeologizm nima ekanligiga oydinlik kiritib olishimiz zarur.

Tilshunoslikning qiziqarli ilmiy sohalardan biri – frazeologiya. Frazeologizm ibora deb ham yuritiladi. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishning birikuvidan tashkil topib, obrazli ma‘naviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi. Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi. Iboralar nutqni ta‘sirchan jozibali qiladi.

Frazeologik birlik – leksik jihatdan bo‘linmaydigan, tarkibi va tuzilishiga ko‘ra turg‘un, yaxlit ma‘noli, tayyor nutq birligi, nutqqa tayyor holga kiritiladigan leksik birlik. [5;60]

Frazeologizmlar tashkil etilishiga ko‘ra qo‘shma leksema, so‘z birikmasi va gapga o‘xshaydi. Biroq ular qo‘shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Frazeologizmlar odatda insonning lisoniy ongida fikrni chiroyli dalillar bilan yoritadi va xoh u tinglovchi bo‘lsin, xoh u kitobxon bo‘lsin lisoniy tafakkuriga oddiy jumalardanda tez muhrlanadi.

Bu soha yuzasidan ko‘p ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullaev, U.Tursunov, X.Berdiyorov, X.Doniyorov, M.Mirzaev, A.Abdunazarov, A.Hojiev, M.Sodiqov kabi olimlar frazeologizmlardagi sof lingvistik tadqiqot tadqiq qilganlar. Shu jumladan o‘zbek tilshunosligida A.Abdullayev, S.Solixojaeva, S.G‘oibov, M.Sadriddinova kabi tilshunoslar badiiy adabiyotlardagi ma‘lum davrga tegishli frazeologizmlarni o‘rganganlar. Y.D.Pinxasov, A.Sh.Shomaqsudov, M.Xusayinov, I.Qo‘chqortoev, L.A.Umarov, X.Qahhorova esa o‘z ilmiy tadqiqotlari mabaynida ayrim ijodkorlarning asarlaridagi frazeologizmlarni sharhlaganlar.

Shavkat Rahmatullayev deydi: “Frazeologizmlarning quyidagi turlari farqlanadi: frazeologik chatishma – frazemaning ma‘nosi uning tarkibidagi so‘zlarning ma‘nosiga bog‘liq bo‘lmaydi, frazemadan anglashilgan ko‘chma ma‘no uning tarkibidagi so‘zlarning ma‘nosi bilan izohlanmaydi: to‘nini teskari kiymoq, boshini olb chiqib ketmoq va boshqa; frazeologik butunlik – frazemaning ma‘nosi uning tarkibidagi so‘zlarning ma‘nolari asosida izohlanadi, shu ma‘nolar asosida umumlashtiruvchi ko‘chma ma‘no ham ifoda qilinadi: yog‘ tushsa yalagudek, yeng shimarmoq, to‘ydan oldin nog‘ora chalmoq va boshqalar; frazeologik qo‘shilma – bunda frazemalar tarkibidagi bir so‘z ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi, boshqasi esa o‘z lug‘aviy ma‘nosini saqlaydi: gapning tuzi, qoli gul va boshqalar” [3]

Tilshunos A.Mamatovning ilmiy izlanishlarida quyidagi jumalarni shu jihatdan ko‘rishimiz mumkin: “Frazeologizmlarda, ya‘ni bu yerda ham baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafratlanish, qiziqish, xavotir; bu yerda insonning to‘g‘ri so‘zligi, iroda kuchi, halollik, oliyjanoblik – ya‘ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu yerda o‘xshashlik va farq boshlanish va tugash (ibtido, intiho) ko‘plik, o‘zlik va shunga o‘xshash tushunchalarni tavsifi ifoda etiladi va shu orqali bizga olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi”.

Frazeologizmlarning ifoda jihatlari deb, ularning asli qanday lisoniy birliklardan tarkib topgani tushuniladi. [9;20]

Frazemaning ifoda plani deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasi nazarda tutiladi. Masalan: qo‘li kalta (birikmaga teng), yulduzni benarvon urmoq (gapga teng).

Frazemaning mazmun plani uning nimanidir nomlashi, ifodalanishi, anglatishidir. Masalan: do‘ppisini osmonga otmoq frazemasining mazmun plani “xursand” ma’nosini ifodalangan.

Frazemaning mazmun plani, albatta, ko‘chma ma’noga asoslanadi, aks holda uning to‘g‘ri ma’noli turg‘un birikmadan farqi qolmaydi.

So‘z qo‘llash mahoratining zakiy ustasi, xalq og‘zaki ijodining bilimdoni va XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan adibi Abdulla Qahhordir. Adib o‘z nasriy asarlarida puxta fikr va g‘oyalarni syujetlarga o‘ragan holda kitobxonlarga yetkazar ekan. Ular bir-biriga mosligi kishini hayratga solidi. Muallif asarlaridagi ko‘tarinki kayfiyat esa albatta, kitobxonni o‘ziga rom etadi. Shu bilan hikoya qahramonlarining suhbat va o‘ylarini bayon etishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining keltirilishi esa, asar qahramonlarning bilimdon va zukkoligidan darak beradi. Qahramonlar tilidan maqol, ibora, hikmatli so‘zlar keltirar ekan, hikoya dunyosi haqida chuqurroq bilishga imkon yaratadi.

A.Qahhor o‘z asarlarida so‘zlarni qo‘llashda katta mahoratga ega bo‘lishi bilan bir qatorda asar syujetlariga mos va xos ravishda ona xalqimizning tuganmas xazinasini bo‘lmish maqol, matal, va ibora kabi turlarini ham ustalik bilan qo‘llagan va ularning ba‘zilari xususida ham qalam yuritgan, bundan ham ko‘rinib turibdiki A.Qahhor ba‘zi xalq og‘zaki ijodi namunalarini asos qilib uning atrofini syujetlar bilan boyitib berib o‘tadi.[1.206]

Abdulla Qahhor asarlari ham frazeologik jihatdan tadqiq etilgan. Biz esa ushbu tadqiqot mobaynida yozuvchining frazeologiyasidagi konseptlarni o‘rganib chiqdik va “Bemor” hikoyasi misolida ularni ko‘rib chiqamiz.

“Bemor” hikoyasida qattiq og‘rib, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam berishdan batamom o‘jiz, qo‘li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to‘ymagan, hali aniq shakl olmagan bola tilida onaizorga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi “begunoh go‘dak” – qizcha holati bayon etilgan. Ona esa har qanday vaziyatda ham o‘z bolasini o‘ylaydi. Bu hikoyaga “Osmon yiroq, yer qattiq” maqoli epigrafiq qilib olingan.

Qo‘lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi.[3.64]

Izoh: oyoqqa bostirmoq – tuzalishiga yordam bermoq. O‘zbek tili frazeologizlar lug‘atida shunday berilgan kasalini davolamoq

Xonaki kasb qilishga bajbur bo‘ldi.[3.64]

Izoh: kasb qilmoq – ish qilmoq ma’nosida. O‘zbek tili frazeologik lug‘atida shunday berilgan biror hunarni egallamoq

Bir kechasi bemor juda azob tortdi.[3.65]

Izoh: azob tortmoq – qiynalmoq. O‘zbek tili frazeologik lug‘atida shunday berilgan azoblanmoq.

U har ingraganda Sotiboldi birov solingan kishiday talvasaga tushar edi.[3.65]

Izoh: talvasaga tushmoq – qo‘rqmoq. O‘zbek tili frazeologizmlar lug‘atida shunday berilgan; shoshilmoq.

“Ko‘ngliga armon bo‘lmasin” deb “chilyosin” ham qildirishga tog‘ri keldi.[3.65]

Izoh: ko‘nglida armon bo‘lmoq – orzusi ushalmalik. O‘zbek tili frazeologizmlar lug‘atida shunday berilgan istagan narsasiga erisholmaslik oqibatida paydo bo‘lgan tuyg‘u

Saharga borib joni uzildi.[3.65]

Izoh: joni uzilmoq – vafot etmoq.

Abdulla Qahhor asarlarida biror ibora yoki maqolni qo‘llar ekan, albatta, u muayyan qahramon ichki dunyosi uchun yoki qahramon diologi aniqliligi uchun qo‘llaniladi. Adib asarlarining qahramonlari shu bilan ahamiyat kasb etadiki, ularning nutqida xalq og‘zaki ijodi namunalarini uchraydi.

Bir xalqning madaniyati o‘rganish davomida uning barcha milliy an‘analarini, tarixini o‘rganishimiz mumkin.

Mazkur maqola orqali frazeologizmlarning umumiy xususiyatlarini hisobga olgan holda Abdulla Qahhor tilidagi ayrim xususiy va umumiy frazemalarni konseptologik tahlil qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhabbat / A.Qahhor . – Toshkent: Yangi asr avlodi. -248b.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik izohli lug‘ati . Toshkent:1978.
3. A.Qahhor. “Bemor” hikoyasi 6-sinf darsligi. Toshkent.2016
4. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent noshir, 2019.-168b.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009.
6. Polvonova.S. Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya aspekti.
7. Sh.Rahmatullayev o‘zbek tilining frazeologik izohli lug‘ati. Toshkent: - 1978.
8. Abdulla Qahhor asarlarida muhabbat konsepti (“Muhabbat” hikoyasi misolida)